
QUTLOV



QUTLOV

Aytish lozimki, So'xlik talaba yoshlar turli tanlovlarda ishtirok etib, tuman nufuzinin oshirishga, qolaversa tahsil olayotgan oliy ta'lim dargohida o'z mavqeiga ega bo'lishga muvaffaq bo'lishayotir. "Yil talabasi" Respublika tanlovida ishtirok etib, munosib o'rin egallagan So'xlik talaba - Iqboljon Hakimjonov ana shunday talabalardan biri. Iqboljon Qal'a mahallasida tug'ilib, ayni kunda Andijon davlat tibbiyot institutida tahsil oladi.

Ilmda va jamoat ishlarida katta yutuqlarga erishgan talabalarni qo'llab-quvvatlash, ularning o'z iqtidorlarini namoyon etishga imkoniyatlar yaratish, rag'batlantirish hamda talabalik nufuzini oshirish maqsadida o'tkazilgan "Yil talabasi" Respublika tanlovining Andijon davlat tibbiyot instituti bosqichida "Yilning o'z mutaxassisligi bo'yicha eng bilimdon talabasi" nominatsiyasida faxrli 2-o'rinni egallaganligi uchun So'x farzandi, Iqboljon Hakimjonov 1 800 000 so'm miqdoridagi vaucher bilan taqdirlandi.

Tabriklaymiz!

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-11-18 15:40:02